

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-dekabrida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 21151,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilga nisbatan 4,6 % ga o'sdi.

2018 yil yanvar-dekabri yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 11222,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,1 % ga o'sdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIM ni shakllantirishda Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

	Mlrd.so'm		2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan, % da
	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr	
I. YaHM	16504,3	21151,9	104,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15387,5	19809,2	104,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	1116,8	1342,7	104,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15387,5	19809,2	104,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7713,9	10223,4	105,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3159,3	4211,3	102,8
sanoat	2038,5	2758,5	100,3
qurilish	1120,8	1452,8	107,3
Xizmatlar	4514,3	5374,5	105,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1211,4	1472,5	104,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1176,2	1283,4	105,5
boshqa xizmat tarmoqlari	2126,7	2618,6	105,8

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 105,0 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 51,6 %), sanoat – 100,3 % (13,9 %), qurilish – 107,3 % (7,3 %), xizmatlar tarmog'i – 105,3 % (27,2 %) ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar - dekabrda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 93,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,3 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 1,5 % punktga o'sdi va hisobot yilida 51,6 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 0,7 % punktga oshdi va 21,2 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 27,2 % ni tashkil etdi va 2017 yil mos davri (29,4 %) bilan taqqoslanganda 2,2 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2017 yil yanvar-dekabr



2018 yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,4 % ni (2017 yil yanvar-dekabr – 7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,5 % ni (7,6 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 13,3 % ni (13,9 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2017 yil yanvar-dekabr



2018 yil yanvar-dekabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: R.Usmanova
(0371) 230-82-98